



ITALYAN TILIDA O'TGAN ZAMON

Xodjiyeva Gulchehra Norovna

SAMDCHTI ispan –italyan tillari kafedrası o'qituvchisi

Abdujalolova Elnora Namozovna

SAMDCHTI italyan tili talabasi 1-kurs talabasi

Abstract: O'tgan zamon (Passato prossimo) bu o'tgan zamonda sodir bo'lgan. Ish-harakatlarni ifodalashda foydalaniladi. Bu zamonda asosiy fe'lining o'timli yoki o'timsizligiga qarab yordamchi fe'llardan biri foydalaniladi. Bu yordamchi fe'llar 2 ta.

Keywords; Essere, avere, participio passato, verbi regolari.

1.Avere (ho, hai, ha, abbiamo, avete, hanno)

2.Essere (sono, sei, e, siamo, siete, sono)

Italyan tilida oddiy o'tgan zamon (passato prossimo) ning tuzilishi

Avere/essere +participio passato ko'rinishida bo'ladi.

Participio passato bu fe'lining o'tgan zamondagi tuslangan shakli bo'lib ya'ni bunda fe'llar yordamchi fe'llar (avere va essere) siz tuslangan shaklda bo'ladi.

Italyan tilida fe'llar qanday qo'shimcha bilan yakunlanishiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi. Bular **-are, -ere, -ire**.

Odatda bunday qo'shimcha bilan tugagan fe'llarning o'tgan zamon sifatoshi (participio passato) da quyidagicha o'zgaradi.

-are bilan tugaydigan fe'llar **-ato** ga;

-ere bilan tugaydigan fe'llar **-uto** ga;

-ire bilan tugaydigan fe'llar **-ito** qo'shimchasini oladi. Bu qoida asosan to'g'ri fe'llar (I verbi regolari) ga mos keladi.

Italyan tilida fe'llar o'tgan zamon sifatdoshini hosil qilish usuliga ko'ra 2 guruhga bo'linadi.

1.To'g'ri fe'llar (I verbi regolari)

2.Noto'g'ri fe'llar (I verbi irregolari)

1.O'tgan zamonda **to'g'ri fe'llar (I verbi regolari)** ma'lum bir standart qolipga bo'ysunadiga fe'llardir. Odatda ularning infinitive (asl) shaklidagi qo'shimchasi olib tashlanadi va yuqorida keltirilgan qoida asosida fe'llarning qo'shimchalari o'zgaradi.

-are – ato; Parlare – parlato;

-ere – uto; Credere – creduto;

-ire – ito; Dormire – dormito.



2. O'tgan zamondagi **noto'g'ri fe'llar (I verbi irregolari)** yuqorida keltirib o'tilgan qoidalarga bo'ysunmaydigan fe'llar hisoblanadi. Ularning asosiy farqi noto'g'ri fe'llar odatda participio passotoda -ato, -uto, -ito qo'shimchlari bilan yasalmaydi, balki o'ziga xos yakunlarga ega bo'ladi.

Fare – fatto;

Prendere – preso;

Scrivere - scritto ;

Leggere – letto.

Bunday fe'llar o'rganish uchun qulay bo'lishiga ko'ra bir necha guruhlariga bo'linib yod olinadi.

O'tgan zamon (Passato prossimo) da fe'llarning AVERE va ESSERE (yordamchi fe'llari) bilan ishlatilishi.

“**AVERE**” bilan o'tgan zamonning hosil qilinilishi:

Ular shaxslarda birlik va ko'plikda quyidagicha tuslanadi:

Io **ho**

Noi **abbiamo**

Tu **hai**

Voi **avete**

Lui/Lei **ha**

Loro **hanno**

Italyan tilida “**AVERE**” (**ega bo'lmoq**) fe'li nafaqat mustaqil fe'l, balki murakkab (passato prossimo) kabi zamonlarni hosil qiluvchi asosiy yordamchi fe'llardan biri hisoblanadi. U asosan o'timli fe'llar (I verbi transitivi) bilan ishlatiladi. Fe'llar o'tgan zamonda “ **avere**” bilan ishlatilganda **jins, ko'plik , birlik va rodda** hech qanday o'zgarishga uchramaydi. Quyida o'tgan zamonda “**avere**” qaysi o'rinlarda ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

1.O'timli fe'ller bilan (I verbi transitive)

Agar harakat to'g'ridan –to'g'ri to'ldiruvchiga (**chi? (kimni?)** va

che cosa? (nimani?) yo' naltirilgan bo'lsa **avere** ishlatiladi.

Ho mangiato una pane.

Luca ha letto il libro.

2. Yordamchi fe'l sifatida” Avere “bilan o'tgan zamon hosil qilishda asosiy yana o'zidan foydalaniladi. Ya'ni “menda bor edi” , “men ega bo'ldim” deb aytmoqchi bo'lsak, yordamchi fe'l sifatida “avere” va uning o'tgan zamon sifatdoshi “avuto” shakli birga keladi.

Ieri ho avuto un problema con la mia macchina.

3.O'tgan zamonda ba'zi bir harakat fe'llar “avere” bilan ishlatiladi.

Bunday harakat fe'llari borish nuqtasini emas, balki bajarilish jarayonini yoki davomiylikni ifodalasagina “**avere**” bilan ishlatiladi.

Ular **camminare, viaggiare, nuotare, correre** va boshqa shu kabi fe'llar hisoblanadi.

Ieri ho camminato nel parco per due ore.

Domenica lui ha nuotato per mezz'ora in piscina.



O'tgan zamonda fe'llarning "essere" bilan ishlatilishi.

"Essere" yordamchi fe'li o'tgan zamonda ishlatilganda har doimo rod-da, ko'plikda, birlikda o'zgaradi shaxslarda quyidagicha tuslandi

Buni har doim "essere" bilan ishlatiladigan "andare" fe'li misolida ko'rib chiqamiz:

Io sono andato/a

Tu sei andato/a

Lui/Lei andato/a

Noi siamo andati/e

Voi siete andati/e

Loro sono andati/e

1. "Essere" har doim riflessiv fe'llar bilan ishlatiladi .

"Essere" ning Riflessiv fe'llar bilan ishlatilganda tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

Dastlab riflesiv fe'lining yuklanmalari (**mi, ti, si, ci, vi, si**) + **essere+asosiy fe'l**

Mi sono alzato/a

Ci siamo alzati.

2.Italyan tilida harakat fe'llari (verbi di movimento) bilan "essere" ishlatiladi. Bunda aniq harakat bir nuqtaga yo'naltirilgan yoki o'zgarishni bildirishi kerak.Bunday fe'llar sirasiga **andare , tornare, uscire, partire** va boshqa shu kabilari kiradi.

Loro sono tornati/e.

3.Holat (o'zgarmaslik) fe'llari bilan "essere" ishlatiladi.

Bunday fe'llar **rimanere, restare** va **stare** fe'llari bo'lib, bir joyda qolishni bildirganligi uchun "essere" bilan ishlatiladi.

Siamo rimasti/e a casa.

4.O'zgarish fe'llari (verbi di cambiamento) har doim "essere" bilan ishlatiladi. Ular diventare, nascere, morire va boshqa shu kabi fe'llar hisoblanadi.

Le piante sono morte.

5.Shaxssiz fe'llar (I verbi impersonali)o'tgan zamonda doimo essere bilan ishlatiladi. Ular piacere, costare, succedere, sembrare, occorere kabi fe'llar hisoblanadi.

Mi e' piaciuto il film.

6.Essere fe'li yordamchi fe'l sifatida o'tgan zamonda o'zidan ya'ni essere fe'lidan foydalanadi. Bu fe'l o'tgan zamonda stato bo'ladi va shaxs va sonda moslashadi.

Maria e' stata molto gentile con me.

Italyan tilida ba'zi fe'llar ma'nosi yoki gapdagi vazifasiga qarab ham **avere** ham **essere** bilan ishlatilishi mumkin.



1.Avere ishlatiladi – agar fe’ldan keyin to’ldiruvchi kelsa (chi? yoki che cosa) ya’ni harakat biror narsaga yo’naltirilgan bo’lsa.

2.Essere ishlatiladi – agar fe’l yo’nalishini (qayerga) yoki holatning o’zgarishini bildirsa.

Ham **essere** ham **avere** bilan eng ko’p ishlatiladiga fe’llar:

Correre, passare, salire.

1.Correre (yugurmoq)

Avere: Il tempo ha corso.

Essere: Sono corso a scuola.

2.Passare(o’tmoq, o’tkazmoq)

Avere: Ho passato un bel weekend.

Essere: Il tempo e’ passato in fretta.

Xulosa qilib aytganda, passato prossimo (o’tgan zamon) italyan tilida tugallangan harakatlarni ifodalash uchun eng ko’p qo’llaniladigan zamon bo’lib, u qismdan: yordamchi fe’l (**avere** yoki **essere**) va asosiy fe’lning o’tgan zamon sifatdoshi (**participio passato**) dan tashkil topadi. Bu zamonning eng muhim jihati yordamchi fe’lni to’g’ri tanlashdir. **Avere** yordamchi fe’li asosan o’zidan keyin o’timli fe’l to’ldiruvchi (ho mangiato la mela) oladigan va ayrim ayrim yo’nalishsiz harakat fe’llari (ho camminato) bilan ishlatiladi. **Essere** yordamchi fe’li esa yo’nalishga ega **harakat fe’llari** (sono andato/a), **holat** yoki **o’zgarishni bildiruvchi fe’llar** (e’ nato/a, sono rimasto/ a) ,**riflessiv fe’llar** (mi sono lavato/a) va **shaxssiz fe’llar** (e’ successo) bilan qo’llaniladi. Eng muhim grammatik farq shundaki, agar yordamchi fe’l sifatida **avere** ishlatilsa, fe’lning oxiri odatda (**o**) harfi bilan tugaydi va hech qanday gap egasiga qarab ko’plikda, birlikda va rodada o’zgarmaydi. Agar yordamchi fe’l **essere** bo’lsa, gap egasining **jinsi** va **soniga** qarab **4 ta** shaklda (**-o, -a, -i, -e**) o’zgarishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Grammatica italia. Diffusione Scolastica S.R.L –Novora, 2009.B.33
2. Patrizia Guida, Maria Martina. “Esercitarsi”. Roma: Edizioni Grammaticali, 2017 .B.65.
3. Nuova grammatical pratica della lingua italiana (Susanna Nocchi) 2012.
4. Essere o avere ? (Fabrizio Ruggeri) 2018.